ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

UO‘K:635.62

QOVOQ GULINING KIMYOVIY TARKIBI VA XUSUSIYATLARI

Jumaniyazova Navbahor Bahtiyarovna Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti, b.f.f.d. (PhD)

navbahorjumaniyazova@gmail.com

Tel:+99891427-06-90

https://orcid.org/0000-0001-7462-5052

Annotatsiya. Qovoq o‘simligi nafaqat mevasi, urug‘i balki guli bilan ham xalq tabobati va zamonaviy fitoterapiyada muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar qovoq gullarini o‘ziga xos kimyoviy tarkibi ya’ni vitaminlar, karotinoidlar, flavonoidlar, fitosterinlar, mineral moddalar va yog‘ kislotalariga boy funktsional oziq-ovqat manbai sifatida tasdiqlaydi. Ushbu sharh maqolada qovoq gulining kimyoviy tarkibi, biologik faol moddalariga asoslangan shifobaxsh xususiyatlari, antioksidant, yallig‘lanishga qarshi va immunomodulyator ta’sirlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Qovoq gulining boy kimyoviy tarkibi uni yurak-qon tomir, immun, nerv va teri salomatligini qo‘llab-quvvatlovchi tabiiy vosita hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Qovoq guli, flavonoidlar, karotinoidlar, antioksidant, oqsil, uglevod, yog‘, vitaminlar, minerallar.

Аннотация. Тыква не только своими плодами и семенами, но и цветами играет важную роль в народной медицине и современной фитотерапии. Последние научные исследования подтверждают, что цветы тыквы обладают уникальным химическим составом, то есть богаты витаминами, каротиноидами, флавоноидами, фитостеринами, минеральными веществами и жирными кислотами как функциональный источник пищи. В данной обзорной статье химический состав цветка тыквы, лечебные свойства на основе биологически активных веществ, антиоксидантное, противовоспалительное и иммуномодулирующее действие анализируются на основе научных источников. Богатый химический состав цветка тыквы делает его естественным средством поддержки сердечно-сосудистого, иммунного, нервного и кожного здоровья.

Ключевые слова: Цветок тыквы, флавоноиды, каротиноиды, антиоксидант, белок, углевод, липид, витамины, минералы.

Abstract. Pumpkin, not only with its fruit and seeds, but also with its flowers, is of great importance in folk medicine and modern phytotherapy. Recent scientific research confirms the peculiar chemical composition of pumpkin flowers, that is, as a functional food source rich in vitamins, carotenoids, flavonoids, phytosterols, minerals, and fatty acids. This review article analyzes the chemical composition of pumpkin flowers, therapeutic properties based on biologically active substances, antioxidant, anti-inflammatory and immunomodulatory effects based on scientific sources. The rich chemical composition of pumpkin flowers makes it a natural remedy that supports cardiovascular, immune, nervous, and skin health.

Keywords: Pumpkin flower, flavonoids, carotenoids, antioxidant, protein, carbohydrate, lipid, vitamins, minerals.

Kirish. Asosan qovoq mevasi va urug‘i o‘rganilgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda qovoq gulining biologik faol moddalarga boyligi, sog‘liq uchun foydali xususiyatlari ilmiy tadqiqotlarda

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

o‘rganilmoqda. Qovoq gullari Osiyo, O‘rta yer dengizi va Markaziy Amerika xalqlari an’anaviy tabobatida yallig‘lanish, shamollash va teri kasalliklarini davolashda qo‘llanilgan. Bu amaliyot nafaqat sog‘liqni saqlash, balki qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini oshirish va barqaror ekologik resurslardan foydalanish nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, qovoq kabi an’anaviy ekinlarning ikkilamchi mahsulotlari ya’ni gullari, o‘zining boy fiziologik faollikka ega moddalar tarkibi tufayli olimlar va sog‘liqni saqlash mutaxassislarining e’tiboriga sabab bo‘lmoqda.

Biologik faol moddalar past konsentratsiyada tirik organizmlarga nisbatan yuqori fiziologik faollikka ega bo‘lgan kimyoviy birikmalardir. O‘simliklarda ular himoya va adaptiv funksiyalarni bajaradi, inson tanasiga esa organizmning normal ishlashini ta’minlash va turli kasalliklarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Qovoq guli aynan shunday biologik faol moddalarga boy manba bo‘lib, uning tarkibidagi kompleks o‘simlik birikmalari fitokimyoviy moddalar uning shifobaxsh xususiyatlarini belgilaydi [1]. Tadqiqotning maqsadi qovoq gulining kimyoviy tarkibi va xususiyatlarini o‘rganish, uni foydalanishning an’anaviy va zamonaviy usullarini tahlil qilishdir.

Qovoq – Cucurbitaceae (qovoqdoshlar) oilasiga mansub bir yillik o‘simlikdir. O‘zbekistonda asosan uchta Cucurbita pepo, Cucurbita maxima va Cucurbita moschata turlari keng tarqalgan. Tadqiqotlarda Cucurbita maxima turining guli ayniqsa yuqori darajada karotinoidlar va antioksidantlar saqlashi mumkinligini ko‘rsatadi [2]. O‘simlik bir uyli bo‘lib, otalik va onalik gullari alohida rivojlanadi. Otalik gullar changchi, ular poyaning bo‘g‘imlarida uzoq bandda joylashadi. Onalik gullar esa meva hosil qilada va ular qisqa bandga ega bo‘ladi. Tibbiy va oziq-ovqat maqsadlarida, ko‘pincha, hosildorlikka ta’sir etmaslik uchun asosan otalik gullardan foydalaniladi.

Qovoq gulining terapevtik ta’siri uning boy va murakkab kimyoviy tarkibi bilan belgilanadi. So‘nggi ilmiy tadqiqotlarda uning fizik-kimyoviy tarkibi, ozuqaviy qiymati va funktsional xususiyatlari aniqlanmoqda [3]. Gullar, xususan, A, C, E, K vitaminlari va B guruhiga mansub vitaminlar B1, B2, B3, B9 manbai hisoblanadi. A vitamini, beta-karotinlar ko‘rish qobiliyati va immun tizimi uchun muhimdir [4]. Tarkibida kaliy, magniy, kalsiy, temir, rux, fosfor va mis kabi mikroelementlar mavjud [5]. Kaliy qon bosimini tartibga solishda, magniy esa asab tizimi va yurak faoliyati uchun muhimdir. Qovoq guli oqsillarga boy bo‘lib, organizm uchun muhim aminokislotalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, triptofan aminokislotasi kayfiyat va uyqu jarayonlarini tartibga soluvchi serotonin hamda melatonin gormonlarining sintezi uchun zarurdir. Tarkibida linoleik kislota (Omega-6) kabi muhim ko‘p to‘yinmagan yog‘ kislotalari mavjud bo‘lib [6], ular teri salomatligi, yallig‘lanishga qarshi jarayonlar va yurak-qon tomir tizimining ishlashi uchun foydalidir.

Fitokimyoviy bioaktiv birikmalar asosiy terapevtik ta’sirni ko‘rsatadi va ular kuchli antioksidant xususiyatga ega. Qovoq gulida mavjud flavonoid va karotinoidlar erkin radikallarni zararsizlantirib, oksidlovchi stressni kamaytiradi. Bu xususiyat yurak-qon tomir kasalliklari va surunkali yallig‘lanishlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Fenolik moddalar va vitamin C qovoq gulining yallig‘lanishga qarshi ta’sirini ta’minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qovoq guli ekstraktlari teri va ichki yallig‘lanish jarayonlarini kamaytirishi mumkin [7]. Qovoq gulidagi vitaminlar va mikroelementlar immun hujayralar faolligini oshiradi. Qovoq guli damlamalari shamollash va gripp paytida iste’mol qilinadi. Qovoq guli tolalarga boy bo‘lib, ichak faoliyatini yaxshilaydi, yengil diuretik ta’sir ko‘rsatadi va organizmdan toksinlarni chiqarishga yordam beradi. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar qovoq gulining antibakterial va antifungal xususiyatlarga ham ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Karotinoidlar beta-karotin, lyutein gullarning sariq rangini beruvchi pigmentlar. Antioksidant va A vitaminiga aylanish xususiyatlari tufayli ko‘z salomatligi, immunitetni himoya qilish, surunkali kasalliklarga qarshi kurashda ahamiyatlidir. Quritish jarayoni ularning saqlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Flavonoidlar kuchli antioksidant va yallig‘lanishga qarshi ta’sirga ega bo‘lgan birikmalardir [8]. Ular to‘qimalarni erkin radikallardan himoya qiladi, qon tomirlarini mustahkamlaydi. Fitosterinlar o‘simlik yog‘larida uchraydigan moddalar bo‘lib, tanadagi xolesterinning so‘rilishini kamaytirish orqali qondagi xolesterin miqdorini pasaytirishga yordam beradi.

Qovoq guli biologik faol moddalarga boy bo‘lib, antioksidant, yallig‘lanishga qarshi va immunomodulyator xususiyatlarga ega. U xalq tabobati va zamonaviy fitoterapiyada istiqbolli dorivor xomashyo hisoblanadi [9]. Kelgusida qovoq gulining shifobaxsh ta’sirini klinik jihatdan chuqur o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Tarkibidagi kaliy gipertoniya rivojlanishining oldini olishga yordam beradi. Flavonoidlar va fitosterinlar qon tomirlarining elastikligini saqlash, ateroskleroz va yurak xuruji xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Yuqori miqdordagi C vitamini va karotinoidlar organizmning tabiiy himoya tizimini faollashtiradi. Antioksidantlar hujayralarni oksidlovchi stressdan himoya qiladi, bu esa surunkali kasalliklar va qarish jarayonining kechikishiga olib kelishi mumkin [10]. Buyrak va siydik pufagidagi ortiqcha suyuqlik hamda toksinlarni chiqarishga yordam beradi, bu jigar faoliyatini yengillashtiradi. B guruhi vitaminlari va magniy asab tizimining normal ishlashiga, stress, tashvish hamda uyqusizlik holatlarini yumshatishga yordam beradi. Tolaga boy tarkibi ichak peristaltikasini yaxshilaydi, prebiotik ta’sir ko‘rsatib, foydali ichak mikrobiomasini o‘stiradi.

Xulosa. Qovoq guli nafaqat sog‘lom turmush tarzida balki fitoterapiyaning ham qimmatli ob’ekti hisoblanadi. Uning boy kimyoviy tarkibi, ayniqsa, karotinoidlar, flavonoidlar, vitaminlar va mineral moddalar yurak-qon tomir, immun, nerv tizimlarining faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi tabiiy vositadir. Qishloq xo‘jaligi uchun qovoq gullarini yig‘ish, quritish va qayta ishlashning standartlashtirilgan texnologiyalarini ishlab chiqish, shuningdek, ularning xalqaro bozorda funktsional oziq-ovqat yoki dori-darmon xom ashyosi sifatida sotilish imkoniyatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Qovoq gullarini parhezbop oziq-ovqat va uni tabiiy davolovchi vosita sifatida oqilona qo‘llash sog‘lom turmush tarzining bir qismi bo‘lib, inson salomatligini mustahkamlashga hamda barqaror qishloq xo‘jaligiga hissa qo‘shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Gargi, J. Singh, P. Rasane, S. Kaur, J. Kaur, and M. Kumar, “Effect of drying methods on the nutritional and phytochemical properties of pumpkin flower (Cucurbita maxima) and its characterization,” J. Food Meas. Charact., pp. 5330–5343, 2023, doi: 10.1007/s11694-023-02026-z.

2. V. Rao, A. Poonia, and T. Dhewa, “Metabolomics profiling and techno- functional characterization of freeze-dried pumpkin flower (Cucurbita maxima) powder for food fortification,” Food Prod. Process. Nutr., pp. 1–33, 2025.

3. I. Chetia, A. Vijayakumar, and L. S. Badwaik, “Edible flowers ’ flavor , safety and their utilization as functional ingredients : a review,” J. Food Sci. Technol., vol. 62, no. 1, pp. 11–23, 2025, doi: 10.1007/s13197-024-06071-4.

4. M. Yadav, S. Jain, R. Tomar, G. B. K. S. Prasad, and H. Yadav, “Medicinal and biological potential of pumpkin : an updated review Nutrition Research Reviews Nutrition Research Reviews,” Nutr. Res. Rev., pp. 184–190, 2010, doi: 10.1017/S0954422410000107.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-12

5. V. Mahabir, "Photochemical Investigation of Flowers and Leaves of Cucurbita Maxima (Pumpkin)," Aust. J. Basic Appl. Sci., vol. 14, no. 8, pp. 9–14, 2020, doi: 10.22587/ajbas.2020.14.8.2.

6. P. Ghosh and S. S. Rana, "Physicochemical , nutritional , bioactive compounds and fatty acid profiling of Pumpkin flower (Cucurbita maxima), as a potential functional food," SN Appl. Sci., 2021.

7. A. Gargi et al., "Phytochemical potential and associated health benefits of Cucurbita flower," Turkish J. Agric. For., vol. 47, no. 2, pp. 143–154, 2023.

8. R. Bieżanowska-Kopeć, A. M. Ambroszczyk, E. Piątkowska, and T. Leszczyńska, "applied sciences Nutritional Value and Antioxidant Activity of Fresh Pumpkin Flowers (Cucurbita sp .) Grown in Poland," Appl. Sci., pp. 1–11, 2022.

9. A. Ma, S. A. Hh, and S. M. Khogali, "Gas Chromatography Mass Spectrophotometry Analysis Report about Pumpkin (Cucurbita maxima , Cucurbitaceae) Flowers," Med. Anal. Chem. Int. J., pp. 1–5, 2018.

10. M. Stryjecka, T. Cebulak, and B. Krochmal-marczak, "Antioxidant Properties and Antinutritional Components of Flowers from Five Pumpkin Species," Antioxidants, pp. 1–22, 2025.